

M.KANNINGHEMNING "SOATLAR" BIOGRAFIK ROMANIDA RAMZIYLIK

Feruza Melsova XAJIYEVA

Filologiya fanlari doktori, dotsent
Buxoro davlat universiteti
Buxoro, O'zbekiston

SYMBOLISM IN M. CUNNINGHAM'S BIOGRAPHICAL NOVEL "THE HOURS"

Feruza Melsova XAJIJEVA

DSc (Doctor of Science), Docent
Bukhara State University
Bukhara, Uzbekistan

СИМВОЛИЗМ В БИОГРАФИЧЕСКОМ РОМАНЕ М. КАННИНГЕМА «ЧАСЫ»

Феруза Мэлсовна ХАЖИЕВА

Доктор филологических наук, доцент
Бухарский государственный университет
Бухара, Узбекистан
feruzakhajieva@gmail.com

UDC (УО'К, УДК): 82.02

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Xajiyeva F. M. M. Kanninghemning "Soatlar" biografik romanida ramziylik// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — № 5 (46). — B. 174-188,

<https://doi.org/10.36078/1673253005>

Received: September 27, 2022

Accepted: October 17, 2022

Published: October 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. So'nggi yillarda zamonaviy Amerika yozuvchisi Maykl Kanninghemning "Soatlar" biografik romani nafaqat Amerika adabiyotida, jahon adabiyotida ham kuchli qiziqish bilan qarshi olinmoqda. Muallif asarni innovatsion uslubiy yondashuv bilan yaratib, unda turli badiiy detallar orqali postmodernizmga xos ramziy ma'noni mujassam eta olgan. Ushbu biografik romanning transtextual va polifonik xususiyatlarni yoritib beruvchi ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lib, asardagi ramziy detallarni talqiniga bag'ishlangan tadqiqotlar etarlicha emas. Tadqiqotda ramziy ma'no kasb etgan turli badiiy detallar tahliliy va biografik metod asosida o'rganilib, birinchidan, ramzlarda ifodalangan fikr orqali muallif o'z dunyoqarashi barobarida, madaniy kodlarni ham matnga singdirib, asarning ta'sir doirasini kitobxonga havola etishi natijasida talqinlar ko'lamini ortib, har bir retsipientning dunyoqarashi bilan boyitilishi ko'rsatilgan. Ikkinchidan ramzlarda birlamchi (umummadaniy qabul qilingan) ma'noga qo'shimcha ravishda ikkilamchi (muallif tomonidan yangi talqin berilgan ramziy) ma'no ham singdirilishi mumkinligi misollar yordamida ko'rsatib berilgan. Natijada maqolada ramziylikni turli milliy va madaniy tafakkur bilan tushunish orqali postmodernizmning bir jihatini yoritishga imkon yaratgan.

Kalit so'zlar: postmodernizm; biografik roman; ramz; ruhiy holat; badiiy detal; Virjiniya Vulf; "Dellouey xonim".

Аннотация. В последние годы биографический роман современного американского писателя Майкла Кanningгема «Часы» вызвал большой интерес не только в американской, но и в мировой литературе. Автор подошел к созданию работы со стилистическим новаторством и смог воплотить символический смысл постмодернизма через различные художественные детали. Имеется ряд научных исследований, освещающих

транстекстуальные и полифонические черты этого биографического романа, однако исследований, направленных на изучение интерпретации символических деталей в романе недостаточно. В данной работе на основе аналитических и биографических методов изучаются различные художественные детали, имеющие символическое значение. Во-первых, стоит отметить, что сам автор при использовании символов выражает их посредством своего мировоззрения, а также интегрирует в текст собственные культурные коды, при этом автором дается возможность читателю интерпретировать символы самостоятельно. В то же самое время можно наблюдать, как осмысление символов варьируется от одного читателя к другому, позволяя каждому реципиенту текста внести свою точку зрения при анализе символических деталей. Во-вторых, на примерах показано, что, помимо основного (общепризнанного) значения, в символы могут быть вложены и вторичные значения (внесенные самим автором). В результате статья позволила пролить свет на один из аспектов постмодернизма, осмыслив символизм с разных национально-культурных точек зрения.

Ключевые слова: постмодернизм; биографический роман; символ; душевное состояние; художественная деталь; Вирджиния Вульф; «Миссис Дэллоуэй».

Abstract. In recent years, the biographical novel by contemporary American writer Michael Cunningham, *The Hours*, has aroused great interest not only in American but also in world literature. The author approached the creation of the work with stylistic innovation and was able to embody the symbolic meaning of postmodernism through various artistic details. There are a number of scholarly studies elucidating the transtextual and polyphonic features of this biographical novel, but there is not enough research aimed at examining the interpretation of symbolic details in the novel. In this work, on the basis of analytical and biographical methods, various artistic details that have a symbolic meaning are studied. Firstly, it is worth noting that the author himself, when using symbols, expresses them through his worldview, and also integrates western cultural codes into the text. Moreover the author gives the reader the opportunity to interpret the symbols from his/her own world outlook. So, understanding of symbols varies from one reader to another, allowing each recipient of the text to contribute their own point of view when analyzing symbolic details. Secondly, the examples show that in addition to the main (cultural or shared) meaning of symbols, secondary meanings (introduced by the author himself) can also be embedded in symbols. As a result, the article made it possible to shed light on one of the aspects of postmodernism, comprehending symbolism from different national-cultural points of views.

Keywords: postmodernism; biographical novel; symbol; inner state; artistic detail; Virginia Woolf; “Mrs. Dalloway”.

Kirish. Zamonaviy Amerika adabiyotida kuzatiladigan ijodiy erkinlik, uslubiy, mavzuviy, g‘oyaviy rang-baranglik natijasida biografik roman yo‘nalishida ijod qilib kelayotgan mualliflar haqiqat va hujjatlarga asoslanishi kerak bo‘lgan asarlarni butunlay yangicha uslubda yaratib, olamni tushunish miqyoslarini modernizm va realizmdan farq qiladigan mezonlarga o‘zgartirdilar. Mifologik, naturalistik, sentimentalistik, realistik qarashlar orqali badiiy olamni tafakkur qilishga ko‘nikkan inson, ruhiy kechinmalarga asoslangan psixanaliz, turli matnlarni sintezlashtirgan intertekstual dunyoqarash

orqali olamni tushunishga majbur bo'ladi. "Bugungi kun biografik romanini tushunish uchun kitobxondan nafaqat asarni mutolaa qilish, balki olamni shaxsiy tajriba va bilimlar asosida idrok etish qobiliyatini ishga solishi talab qiladi" (15, 3). Mana shunday asarlar yaratgan mualliflar qatoriga zamonaviy yozuvchi Maykl Kannighemni kiritish mumkin. Adib postmodernizm uslubida yaragan "Soatlar" biografik asari bilan adabiyot olamida tanilib ulgurgan, uning bu romanidagi turli adabiy hodisalarni dekodlashga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar (5, 9, 10, 11) mavjud.

Yozuvchining biografik roman janrida yozilgan "Soatlar" romani omma tomonidan kuchli qiziqish bilan qarshilangan. Asar syujeti asosida shu nom bilan film ham suratga olingan. Bu asarning ommaga ta'siridan dalolat beradi.

Kanninghemning ta'kidlashicha, u Virjiniya Vulfning mashhur "Mrs. Dalloway" asarining dastlabki nomi "The Hours"ni o'zlashtirgan "I appropriated the title" (8; 95). Shu yo'l orqali "Mrs. Dalloway" romanining zamonaviy shaklini yaratgan. Darhaqiqat, har ikki asarda universalialarni kuzatish mumkin. Buni parallel obrazlar, parallel badiiy texnika, bayon uslubida yaqqol ko'rish mumkin. Biroq Kanninghem asarining noyoblighi uning janrida – postmodern biografik roman shaklida yaratilganligidadir.

An'anaviy biografik romanlar obyektiv dunyoqarash bilan birga fakt va tarixiylik prinsiplari asosida yaratilgan bo'lsa (14), bu asarda tamomila boshqa yondashuvni kuzatish mumkin. Asarning syujeti rassomchilikda qo'llaniladigan "triptix"ni eslatadi. Asar muqaddima va yigirma ikki bobdan tashkil topgan. Syujet parallel rivojlanadigan uch chiziqdan iborat. Romanning prolog qismida 1941-yilda Virjiniya Vulf hayotining so'nggi daqiqalari, o'zini daryoda cho'ktirib, joniga qasd qilish voqeasi tasvirlangan. Uch chiziqdan iborat syujetda esa Vulfga aloqador shaxslar bilan bir kun mobaynida sodir bo'lgan voqealar bayon etilgan. Shaxslar Virjiniya Vulfga tom ma'noda aloqador (ya'ni adibaning qarindoshlari yoki do'stlari emas) deb aytish noto'g'ri. Bu aloqadorlik *biografik ma'lumotlarda, yozuvchi retsepsiyasida va kitobxon retsepsiyasida* o'z ifodasini topgan. Buni syujet chiziqlari nomlaridan ham anglash mumkin.

Asar syujetida taniqli yozuvchi Virjiniya Vulf hayotidan olingan "*bir kun*" tasvirlangan bo'lsa-da, kitobxon uning ijodiy olami bilan postmodernistik texnikalar yordamida batafsil tanisha oladi.

Asosiy qism. Har bir asarning badiiyliigi va tilining bo'yoqdorligi stilistik vositalar orqali yuzaga chiqadi. Ular muallif mahorati, olamni tushunishi va olamga subyektiv munosabatini ko'rsatuvchi omillar bilan bog'liq. Muallif asar tilini yaratishda pafosli, ehtirosli ohangning yuqori notalaridan foydalanib, muhabbat, nafrat, g'azab kabi hissiyotlarni tasvirlashi, kinoya yoki istehzodan foydalanib, buqalamun dunyoni fosh etishi, oddiy tilni tanlab, hayotning bir qismini reallikda, borligicha tasvirlashi yoki biror-bir predmet, detalni yuksak mahorat, obrazli so'zlar orqali tasvirlab, chuqur falsafiy mazmun yuklab, unga ramziylik kasb etishi mumkin. Demak, tilning har qanday ko'rinishidagi stilistik vositalar asarning

badiyiligi, ohangdorligini, emotsionalligini, ekspressivligini ta'minlaydigan muhim omildir.

M. Kanninghemning “Soatlar” asari postmodernistik yo‘nalishda yozilgan bo‘lib, unda badiiy tilning o‘ziga xos bir ko‘rinishi tanlanganki, buni biz quyidagi tahlillarda oydinlashtirishga harakat qilamiz.

“*Ramz (ar. رمز — imo, ishora, imlash) — simvol; ko‘chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko‘chma ma‘no kasb etuvchi so‘z yoki so‘z birikmasi; obrazlilik turi. Ramz mohiyatan allegoriyaga yaqin, undan farqi shuki, ramz kontekst doirasida ham o‘z ma‘nosida, ham ko‘chma ma‘noda qo‘llanadi. Ramzning ma‘nosi kontekst doirasida va shartdan xabardorlik bo‘lganda reallashadi*” (16, 245). Bugungi kun tadqiqotlarida ramziy ma‘noga bag‘ishlangan ilmiy maqolalarda turli badiiy detallardan ramz sifatida foydalanilishi ta’kidlangan. Tadqiqotchi B.To‘rayeva “Muallif jamiyat makroolamida boshqaruvning ramziy ifodasi taxt bo‘lganidek, tuban ishlarni kasb qilgan to‘da boshliqlarining sarobga qurilgan taxti — yashik badiiy detalidan o‘rinli foydalangan” (13, 254; 12, 92), degan qarashlari asosida ramzning zohiriy va botiniy ma‘nolarini taxt timsoli orqali tahlil qiladi. Biri “jamiyatda mavjud ramziy belgi” bo‘lsa, ikkinchisi “muallif tomonidan yaratilgan ramziy belgi turlariga ajratish mumkin. Adabiyotshunoslikda “jamiyat tomonidan qabul qilingan ramzlar” boshqa bir yozuvchi qalamida yangicha ma‘no kasb etishi mumkin. S. Xamdama ingliz yozuvchisi U.B. Yeyts she‘riyatini tahlil qilar ekan, go‘zallik va nafosat ramzi bo‘lgan atirgul shoir asarlarida hayot bilan o‘lim orasidagi rishta, do‘zax bilan jannat o‘rtasidagi ko‘prik ekanligini (2), avvaldan salobat va mayoq ramzi bo‘lgan minora obrazi shoirning avtobiografik ma‘lumotlarini o‘zida mujassam etgan shinam va mustahkam uy ekanligi, qora minora timsoli esa xalq birdamligi sifatida qirolni tiriltiruvchi kuch ekanligini (3), adabiyotda tanilgan irland qahramoni, mifologik obraz Kuxulinning shoir asarlarida takrorlanib turuvchi avtobiografik ramz (4) ekanligini asoslab bergan.

Shunday tadqiqotlar qatorida bizning ishimizda M.Kanninghemning “Soatlar” asarida ramziy detallar tahlil qilindi va asardagi ayrim detallarning ramziy ma‘nolari yoritildi.

Avval aytib o‘tilganidek, biografik roman syujeti triptix ko‘rinishida bo‘lib, “Mrs. Woolf”, “Mrs. Dalloway”, “Mrs. Brown” kabi chiziqlardan iborat. Har bir chiziqni bir-biridan ajratuvchi voqealar, zamon va makon hamda obrazlar galleriyasi qatorida ularda turli ramziy ma‘no anglatuvchi, bosh qahramon taqdiriga ishora qiluvchi ramziy detallar mavjud. Dastlabki syujet chizig‘ida ramziy ma‘no yuklangan qush obrazini kuzatish mumkin. Joni uzilayotgan qush obraziga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, muallif bu jonot orqali Virjiniya Vulfnung ruhiy holatini, ayol hamda erkaklarga munosabatini, umuman, falsafiy olamiga ishora qiladi.

Nega Kanninghem aynan shu kunda qushning o‘limini tasvirlaydi, degan savol tug‘iladi. Chunki Virjiniya “Mrs. Dalloway” asari qahramoni Klarissani yaratayotgan, xayolida uning taqdirini

bitayotgan, yangi asarga poydevor qo'yayotgan edi. Virjiniya yaratilajak asari qahramonini o'ldirishni rejalashtiradi. Kun mobaynida Klarissa o'limga mahkum qilinadi. Ayniqsa qushcha bilan bo'lgan epizod orqali bu g'oya kulminatsiyaga yetkaziladi.

Asarda Virjiniyaning opasi Vanessa farzandlari bilan singlisining uyiga tashrif buyurishi bilan bog'liq suyet to'liq bir bobni tashkil qiladi. Bolalarga xos qiziquvchanlik va ishtiyoq bilan Virjiniyaning jiyanlari uning hovlisiga kirib kelganlarida Virjiniya ularni sovuqqina kutib oladi. Chunki mehmonlar aytilgan vaqtdan oldin kelishgan edi. Bolalar yo'lda jon berayotgan qushni ko'rib qoladilar va katta qiziquvchanlik bilan uni o'zlari bilan olib keladilar. Xuddi hayot o'limning oldiga kelayotgandek edi. Yosh bolalar hayotni aks ettirsa, Virjiniyaning psixik holati o'limni ifodalagan.

“Hello, changelings,” Virginia calls.

“We have found a bird,” Angelica announces. “It is sick.”

“So I understand,” Virginia answers.

“It’s alive,” Quentin says with scholarly gravity. “I think we might be able to save it.”

Vanessa squeezes Virginia’s hand. Oh, thinks Virginia, just before tea, here’s death. What exactly, does one say to children, or to anybody?

“We can make it comfortable,” Vanessa says. “But this is the bird’s time to die, we can’t change that.”

Just so, the seamstress cuts the thread. This much, children, no less but no more. Vanessa doesn’t harm her children but she doesn’t lie to them, not even for mercy’s sake” (1, 116–117).

Dialogik nutqda ifodasini topgan *“jon talvasasidagi qush”* to'g'risidagi xabar asarda besh betdan iborat voqeada tasvirlab berilgan. Epizodga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, bolalar qushni saqlab qolishga intilishadi. So'ng unga bu foyda bermasligini tushunib, qutidan tobut yasashadi. Tobutni o't-o'lanlar, barg va gullar bilan bezashadi. Epizod yakunida qushchani qutida qoldirib, qahramonlarning barchasi Vulf xonadoniga ovqatlanishga borishadi. Epizod murakkab bir holatni yechib bermasa-da, unda Vulfnning ruhiy holati va olamni idrok etishini anglash mumkin.

Dastavval, qushcha — Vulfnning *ruhiy holati* ramzi. Chunki Virjiniya Richmondga davolanish, tinch muhitda ijod qilish uchun kelgan bo'lsa-da, unga bu sharoit yoqmaydi. Do'stlaridan, Londondan uzoqda bo'lish uni qiynaydi. U qizg'in hayotga qaytishni, turli davralarga borishni istaydi. Tushkunlikda qolgan Virjiniyaning psixik holati o'lim orqali bo'rttiriladi.

Ikkinchidan, Virjiniyaning bu qushchaga achinish hissini tasvirlash orqali o'limdan so'ng insondan qoladigan yodgorliklar to'g'risidagi xayollarini ifodalaydi.

“Before going with Angelica into rose garden, Virginia stands with Vanessa, watching Vanessa’s children as if they were a pool of water into which she might not dive. This, Virginia thinks, is the true accomplishment; this will live after the tinselly experiments in narrative have been packed off along with the old photographs and

fancy dresses, the china plates on which Grandmother painted her wistful, invented landscapes” (1, 118).

Virjiniyaning opasi Vanessa bolalarini olib kelganida yozuvchi bolalarga qarab turadi. Bolalar — Virjiniya uchun “*u sho‘ng‘ishga qodir bo‘lmagan suv bilan liq to‘la ko‘l*”. Bu metafora orqali Virjiniya farzandsizligiga ishora qilinadi. Shu sabab yozuvchi odamdan qoladigan yodgorlik aslida bolalar ekanligini tushunadi. U yaratgan eksperiment shaklida yozilgan modernistik asarlar xuddi eski rasmlar, ko‘ylaklar, tabiat rasmi chizilgan chinni likopchalardek bir joyda ko‘rinish berish uchun turishini tasavvur etadi. Suvga to‘la ko‘l esa hayot ramzi. Bolalar hayotning davomchisi, shu sabab Virjiniya armonga to‘la ayol siymosida gavdalanitirilgan.

Kanninghem qush obrazi orqali, shuningdek, Virjiniya *ayol va erkaklarning* o‘limiga qanday munosabat bildirishi to‘g‘risidagi xayollarini ifodalaydi. O‘lim mavzusi atrofida personajlar shakllantirilib boriladi, xarakteri yoritiladi. Misol uchun Kanninghem g‘amgin vaziyatda besh yashar Anjelika obrazida qiz bolalarga, o‘n besh yoshli Juliyan hamda o‘n uch yoshli Kventin siymosida o‘g‘il bolalarga xos xulq-atvorni ko‘rsatishga harakat qiladi. Virjiniya o‘zini shu qushga o‘xshatishga va olamdan o‘tgan taqdirida atrofda g‘ilarning xatti-harakatlari to‘g‘risida xayolga botadi.

Anjelika agar qushning joni uzilsa, unga motam marosimini tashkillashtirishini va g‘amgin qo‘shiq kuylashini quvnoq ohangda aytadi. Kventin jahldor ohangda singlisiga shoshilmaslikni, chunki qush hali tirikligini aytadi. Bu suhbatni kuzatib turgan Virjiniya jiyanining qushga achinishini ko‘rib, bolada insonga xos hamdardlik tuyg‘usi borligidan xursand bo‘ladi. Yozuvchilarga xos g‘am va o‘limni hissiyot bilan bunday idrok etish kuchli psixologik detalga aylantirilgan.

“Bless you, Quentin, thinks Virginia. Will it be you who one day holds my hand and attends to my actual final breathing while everyone else secretly rehearses the speeches they’ll deliver at the service?” (1, 117).

Virjiniya o‘zining o‘lim oldi oxirgi nafasini ko‘z o‘ngiga keltiradi. Faqat Kventin shu mahalda uning yonida qo‘lini ushlab turishini tasavvur etadi. Insoniylik Kventinda barqarorlashib, boshqalar esa oxirgi vidolashuv nutqini tayyorlab turishadi, degan xayollar Virjiniyaning ko‘nglidan o‘tadi.

Epizod davom etib borar ekan, qushchanning vafotidan so‘ng uni dafn etish vaqtida Virjiniya jiyanlari Kventin va Julianning o‘zini tutishiga e‘tibor qaratadi.

“Ah,” says Quentin, and without seeing them Virginia knows he and Julian are laughing, quietly, at Angelica and perhaps, by extension, at her. Even now, in this late age, the males still hold death in their capable hands and laugh affectionately at the females, who arrange funerary beds and who speak of resuscitating the specks of nascent life abandoned in the landscape, by magic or sheer force of will” (1, 119).

Yuqorida bolalar misolida ayol va erkaklarning o‘limga munosabatini kuzatish mumkin. Virjiniyaning o‘ylashicha, erkak zoti

o'limni o'z qo'lida saqlab turadi. Ayollar esa motam tobutlarini yasab, yangi hayot bag'ishlash ilinjida bo'ladi. Nega? Olam yaratilganidan buyon erkaklar urush va kurashishga moyilliklari sabab ular jang qilishadi. Hukmronlik qilish, kuchini ko'rsatish va yo'q qilish hissi ko'pincha erkaklarga xos. Ayollar tabiati esa, aksincha, chin dildan motam tutib, yangi hayot yaratishga, tug'ish va ko'payishga moyil bo'ladi. Shu sabab tabiat onaga qiyoslanadi. Tabiat borliqqa yangi hayot bag'ishlaganidek, ayollar shu borliqning go'zal xilqati — insonni dunyoga keltiradi.

Yuqoridagi misolda erkaklar zolim-u, ayollar yaratuvchi tarzida sifatlangan bo'lsa, keyingi parchada bu falsafaga teskari fikrlarni ham o'qish mumkin. Kventin joni uzilgan qushchani sekin qutidan yasalgan tobutiga joylashtirar ekan, uning xatti-harakatlarida erkaklar qalbidagi muloyimlikni quyidagicha tasvirlangan.

“Yes,” Angelica says, at five, she can feign grave enthusiasm for the task at hand, when all she truly wants is for everyone to admire her work and then set her free. Quentin kneels with the bird and gently, immeasurably gently, lays it on the grass. Oh, if men were the brutes and women the angels — if it were as simple as that” (1, 120).

Agar besh yoshli Anjelika motam marosimida o'zini qanday tutish kerakligini ishtiyoq bilan bajarib, tezroq vazifasidan ozod bo'lishni xohlayotgan bo'lsa, Kventin sekingina qushni maysaning ustiga qo'yadi. Uning xatti-harakatlaridagi jonzotga nisbatan achinish hissidan Virjiniya to'lqinlanib, qaniydi, agar erkaklar toshbag'ir bo'lsa-yu, ayollar farishta bo'la qolsa, deb hayratga tushadi. Bolalar misolida olingan mana shu kichkina epizod har ikki jins xarakteridagi ziddiyatli nuqtalarni ko'rsatishga, insonning naqadar murakkab xilqat ekanligini ko'rsatadi. Erkaklarda ham ayollar kabi muloyimlik, ayollardagi ikkiyuzlamachilik tug'ma, bolaligidan “dasturlashtirilgan kompyuter” kabi mujassam etilgan. Kanninghem “Mrs. Woolf” syujet chizig'idagi *“joni uzilayotgan qush”* ramzi orqali asarda qo'shimcha implikatsiya yarata olgan. Ular Virjiniya Vulf obrazida ijodkor dunyoqarashini, ruhshunos va insonshunosga xos fikrlashini ko'rsatishga yordam bergan.

Asardagi keyingi *ramziy ma'no* kasb etgan predmet “Mrs. Brown” syujet chizig'ida Lora Braun turmush o'rtog'i Den tug'ilgan kuniga o'g'li Richi bilan pishirgan *“tort”* detalidir. Kanninghem ushbu tort pishirish jarayoniga jiddiy e'tibor qaratib, uni pishirish jarayonini to'liq bir bobda tasvirlagan. Bundan tashqari, ushbu tort keyingi boblarda ham takrorlanib, oila a'zolarini bir-biriga bog'lab turuvchi motiv darajasiga ko'tarilgan.

“She is herself and she is the perfect of picture of herself; there is no difference. She is going to produce a birthday cake — only a cake — but in her mind at this moment the cake is glossy and resplendent as any photograph of cakes in any magazine; it is better, even, than the photograph of cakes in magazines. She imagines making, out of the humblest materials, a cake with all the balance and authority of an urn or a house. The cake will speak of bounty and delight the way a good house speaks of comfort and safety. This, she thinks, is how artists or architects must feel (it's an awfully grand

comparison, she knows, maybe even a little foolish, but still), faced with canvas, with stone, with oil or wet cement. Wasn't a book like Mrs. Dalloway once just empty paper and pot of ink? It is only a cake, she tells herself. But still. There are cakes and then there are cakes. At this moment, holding a bowl full of sifted flour in an orderly house under the California sky, she hopes to be as satisfied and as filled with anticipation as a writer putting down the first sentence, builder beginning to draw the plan" (1, 76–77).

Lora Braun tort pishirishga kirishar ekan, u xayolga beriladi. Xayolida bu pishiriy xuddi yaltiroq jurnal muqovasidagi rasmdek chiroyli, ideal chiqishi kerak, balki undan ham yaxshiroq bo'lishini istaydi. Lora shunchalik o'z muvaffaqiyatiga ishonar edi. Loraning ishonchi bu tashqaridan qaraganda uning oilasidagi ideal muhitni ifodalaydi. Ijtimoiy jihatdan olib qaraganda, Lora ayollik burchini to'liq amalga oshirayotgan edi. Bu — klassik va viktorian davrlaridagi ayolga, uning vazifalariga nisbatan qarashlar ifodasi edi. Elliginchi yillarda yashab kelayotgan Lora qoida va an'analar aksi edi. Lora masalliqni olib, proporsiyalarni tayyorlar ekan, u xuddi qasr yoki Misr piramidalarini qurayotgandek mas'uliyatni sezayotgan edi. Uning torti komfort va xursandchilik keltirishini his etardi. Lora uchun bu tort shunchalik muhim ediki, ayollik baxti, ayol bera oladigan mehr, muhabbat, qulaylik unda mujassam bo'ladigandek edi. Darhaqiqat, qadimdan Yevropa madaniyatida tort o'zida xursandchilik va birlikni, uni kesish jarayoni oilaviy xursandchilikni baham ko'rish motivini ifodalash uchun xizmat qilgan. Ushbu oilaviy qadriyat asarda yuksak pafos orqali badiiylashtirilgan.

Lora xayol surishda davom etar ekan, u bo'lajak tortni san'at asari darajasiga ko'taradi. Arxitektor yoki yozuvchi singari Lora ham shoh asar yaratayotgan edi. Rassom xolst oldida turganida, arxitektor ham uy qurishdan oldin qo'lida sement ushlaganida yoki Virjiniya Vulf kabi adiba ham "Mrs. Dalloway" asarini yaratishdan oldin qog'oz va siyohni ushlaganida o'zini qanday sezgan bo'lsa, Lora ham xuddi shunday hissiyotga berilgan edi. U o'zini buyuk ijodkorga qiyoslaydi. Loraning bu hissiyotlarida ham barcha ayollarga xos tuyg'ularning aksini ko'rish mumkin. Har bir ayol tabiatan yaratuvchi. U ovqat pishiradimi, farzand ko'radimi, asar yaratadimi, tadbir o'tkazadimi, u yaratadi. Ayollardagi mana shu xislatlar turli ko'rinishda ifodalanishi mumkin. Kanninghem shunga ishora qiladi. Biroq Kanninghem kuchli pafos orqali boshlagan epizodni keskin burib, Loraning ruhiy olamidagi to'ntarishni tasvirlaydi. Uy bekasi hissiyotlarining ichki kurashi tortda o'z aksini topadi. Lora tortning ichki qismini o'g'li bilan pishirib bo'lgach, uni bezash jarayonida gullari va naqshlar proporsiyasi buziladi. Tort o'zi o'ylaganidek ideal bo'lmaydi. Shunda ayol tayyor pishiriy qni axlatga uloqtiradi. O'g'lini enagasiga berib, mehmonxonada kitobni o'qib, qaytib kelgach, yangi tort pishiradi. Biroq bu jarayon asarda tasvirlanmagan. Yozuvchi buni kitobxon tasavvuriga havola qilib, Loraning kelajagini sirigicha qoldiradi. Syujet chizig'ida tasvirlangan voqealar sahnasida ikkinchi tort paydo bo'ladi. Shamchalar bilan bezatilgan tortni kesayotgan

Denning soʻlagini oqirib gapirishi, xatti-harakatlaridan Lora jirkanib ketadi. Shu vaqtda u hayoti oqimini oʻzgartirishga qaror qiladi.

Ayolning bunday xatti-harakati, maʼnaviy ikkilanishi, ruhiy besaranjomligida ham ramziy maʼno yuklangan. Lora syujetining soʻnggida ayol oʻz oilasini tashlab ketadi. Keyingi hayotini yolgʻizlikda, kitoblar orasida, Kanada kutubxonasida oʻtkazadi. Bu ikkinchi jahon urushi, feminizm va ayol erkinligi, freydizm va ruhiy olamni tushunishga intilish gʻoyalarning jamiyatdagi salbiy taʼsirini aks ettirishga urinish deb qarash mumkin. Chunki postmodernizm jamiyatdagi xilma-xil gʻoyalarni inkor etadi. Postmodernizm ularning salbiy oqibatlarini koʻrsatishga, jamiyatdagi negativ voqelikni shaxs ruhiyatini tasvirlash orqali refleksiylashga intiladi. Asardagi tort ramzi esa buni yaqqol koʻrsata olgan.

“Soatlar” romanidagi keyingi ramz — “kreslo” detali. Ushbu predmet “Mrs. Dalloway” syujet chizigʻida, OITS bilan kasallangan Richard Brauning xonasida tasvirlangan. Muallif uni quyidagicha chizadi:

“Richard’s chair, particularly, is insane; or, rather, it is the chair of someone who, if not actually insane, has let things slide so far, has gone such a long way toward the exhausted relinquishment of ordinary caretaking — simple hygiene, regular nourishment — that the difference between insanity and hopelessness is difficult to pinpoint. The chair — an elderly, square, overstuffed armchair obesely balanced on slender blond wooden legs — is ostentatiously broken and worthless. It is upholstered in something nubby, no-colored, woolen, shot through (this is, somehow, its most sinister aspect) with silver thread. Its square arms and back are so worn down, so darkened by the continual application of friction and human oils, that they resemble the tender parts of an elephant’s hide. Its coils are visible — perfect rows of pale, rusty rings — not only through the thin yellow towel Richard has draped over the cushion. The chair smells fetid and deeply damp, unclean; it smells irreversible rot. If it were hauled out into the street (when it is hauled out into the street), no one would pick it up. Richard will not hear of its being replaced” (1, 58–59).

M.Kanninghem tasvirlagan isqirt, jirkanch badboʻy, chirib, toʻkilib ketayotgan kreslo OITS bilan kasallangan Richardning xonasi markazida turadi. Richard bu kresloda umrini oʻtkazayotgan edi.

Kresloga eʼtibor bilan qaraydigan boʻlsak, bu Richardning fiziologik, ruhiy holatini yaqqol aks ettiradi. XX asr vabosi sanaladigan OITS kasalligi butun dunyo boʻylab tarqalgan, qanchadan-qancha odamlarni oʻz domiga tortib, oʻlimiga sabab boʻlgan. Kasallikning nomidan ham qoʻrquv iskanjasiga tushadigan odamlar qatorida yozuvchilar ham borligi asarda misol tariqasida keltirilgan. Bu kasallikning sababi, asosan nosogʻlom turmush tarzi, nosogʻlom gigiyena ekanligi hammaga maʼlum. Asar qahramoni (gomoseksual) Richardning shaxsiy hayoti ochiq tanqid qilinmagan. Aksincha, u mukofotga sazovor boʻlgan yozuvchi sifatida gavdalantirilgan. Ramziy maʼno anglatuvchi iflos kresloda oʻtirishi

orqali Richardning tartibsiz shaxsiy hayotini kreslo misolida qoralangan.

Richard kasallikdan shu darajada tushkunlikka tushganki, u telbalik, jinnilik holatiga tushib qolgan. Umumiy normalar sifatida qaraladigan ovqatlanish va gigiyenaga rioya qilish qoidalarini rad etib, kresloga sho'ng'ib olgan edi. Kresloning yumshoq qoplama qismi titilib ketgan. Muallif kresloning rangsiz junli matosining "xunuk" tasviri orqali kasallikka duchor bo'lgan odamdan jamiyat a'zolarining "qo'rqishiga" ishora qiladi. Kresloning kvadrat qo'l turadigan joyi va orqaga suyanadigan joyi artilib, sho'rlanib ketganki, u fil po'stiga o'xshab qolgan. Bu o'xshatish orqali Kanninghem inson o'limga mahkumligi sabab dag'al, qo'rs bo'lib qolishi, ayniqsa, Richardning hech bir gapga ko'nmasligini bo'rttirgan. U depressiyaga tushib qolgan edi. Klarissa Richardga qanchalar mehribonlik qilsa, u shunchalik do'stiga ozor berar edi.

Kresloning chiqib turgan, zanglab ketgan prujinalari esa Richardning ozib ketganligiga ishora qiladi. OITSGa chalinganlarni ozib ketishi kasallikning asosiy belgilaridan biridir. Kanninghem bu bilan insonni ich-ichidan quritgan kasallikning belgisini bo'rttira olgan.

Ramziy ma'no anglatadigan kreslo kuchli detal sifatida XX asr vabosi — OITS muammosini yoritishga, unga salbiy munosabat bildirishga, kasallik insonni fiziologik, ruhiy va ma'naviy o'limga olib kelishini badiiy ifodalay olgan.

"Soatlar" romanidagi keyingi ramz "*atirgullar*" hisoblanadi. Romanda atirgul detali juda ko'p o'rinlarda tasvirlangan. Klarissa yurgan Vashington Skverda odamlarni kuzatib borar ekan, sevishtanlarning bahslashib qolishi, kassirlarning shaqqillatib apparatlarni ishlatishi, erkak va ayollarning kechki xaridlari, mast ayolning kuylashi qatorida ayol zotining atirgulni qirqib olib, uni qaynoq suv solingan vazaga qo'yishi ("you snip the end of a rose and put it in a vase full of hot water" (1, 94)) kabi harakatida ham atirgul ayolning har bir kunini bezab turadigan go'zallik ramzi sifatida tasvirlangan. Lora oilasidan qochib, mehmonxonaga yashiringanida ham deraza ortidan bir tup atirgulni ko'radi ("There is, below, is the V-shaped plaza, with its fountain and struggling rosebushes, its empty stone benches" (1, 149)). Aytib o'tilganidek, Lora pishirgan tortning gullari kabi, Klarissa yoshligida kiygan ayollar kurtkasining tugmasi ham atirgul shaklida ("rose-shaped buttons carved of bone" (1, 52)). Virjiniyaning opasi Vanessaning yuzi va terisi ham atirgullar kabi pushti rangda tasvirlangan ("her skin, a brilliant, scalded pink" (1, 114)), ayolning o'zi esa pushti rangdagi marmardan yasalgan figuraga qiyoslangan ("Vanessa is more like a figuresculptured in a rosy marble by a skilled but minor artist of the lae Baroque" (1, 114)).

Gullar detali asarning har uch syujet chizig'ida dastlabki epizodlardan oq kiritilgan, mahorat bilan ifodalangan, bu badiiy-ijodiy texnika orqali Virjiniya Vulfning "Mrs. Dalloway" asariga taqlid ekanligini kuzatish mumkin.

Virjiniya Vulfning ijodida takrorlanib turuvchi gullar simvolikasi ayol, uning ijtimoiy mavqei, go'zalligi, nozikligini, hayot

manbaini bildiradi. Bu ramz uning “Mrs. Dalloway” romanida o‘z ifodasini topib, ayol timsoliga turli rakursdan qarashga imkoniyat yaratib bergan. Asarda atirgullar Dellouey xonim atrofida juda ko‘p marotaba tasvirlangan. Yoshligida dugonasi Salli bilan xotiralarida, uyida kechki bazmga tayyorgarlik ko‘rayotganida turmush o‘rtog‘i Richard unga qizil va oq atirgullar sovg‘a qilishida va boshqa vaziyatlarda Klarissa bu gullarga burkangan holda tasvirlangan.

Maykl Kanninghem ham atirgullar simbolikasidan juda unumli foydalangan. Uchliklardan tashkil topgan “Soatlar” romanining har bir syujet chizig‘ida ularni uchratish mumkin.

“Mrs. Woolf” syujetida atirgullar dastlab quyidagicha tasvirlangan.

“Virginia moves through the park without quite walking; she floats through it, a feather of perception, un bodied. The park reveals to her its banks of lilies and peonies, its graveled paths bordered by cream-colored roses”(1, 30).

Virjiniya sayohatga chiqib, ko‘cha bo‘ylab borar ekan, u o‘zini yengil qushdek sezar, parkdagi liliya va pion gullar, atirgullar qatorini tomosha qilar edi. Gullar tasviridan ramziy ma‘noni ilg‘ash mumkin. Turfa gullar hayot go‘zalligini ifodalaydi. Atirgullar shular qatoridan o‘rin olib, ular Virjiniya hayotiga hamohanglikni ko‘rsatib turadi. Richmonddagi go‘zal tabiatning bir qismi, Virjiniya hayotining bir bo‘lagi ekanligini bildiradi.

Xuddi shunday atirgullar ifodalagan ijobiy ramziylik bolalar obrazida ham namoyon bo‘ladi. Syujet chizig‘ida Vanessaning uch farzandi atirgullar butasi orasidan chiqib kelishi bilan kitobxonga tanishtiriladi.

“In the garden, Vanessa’s children kneel in a circle on the grass near the rosebushes. How astonishing they are: three beings fully closed, conjured out of nothing” (1, 116).

Atirgullar ayol boyligi hisoblanadagigan beg‘ubor bolalarni ham ifodalaydi. Ular — AYOL yaratgan hayot timsoli. Atirgullarning nozik barglari, xushbo‘y hidi bolalarni eslatadi.

Kanninghem Vulfga taqlid sifatida yaratgan gullardagi ijobiy ramziylikni keskin salbiy bo‘yoqlar bilan o‘zgartiradi. U atirgullardagi chiroyni g‘amdan qidiradi. Kanninghem o‘lim va g‘amdan go‘zallik topishga urinadi. O‘layotgan qush ramzi atrofida sariq atirgullar obrazi yaratilgan. Ularning gulbargidan Anjelika tobut yasaydi.

“Angelica takes one of the yellow roses they’ve picked and placed it, carefully, along the edge of the grass mound. She adds another and another until she has created a rough circle of rosebuds, thorny stems, and leaves” (1, 119).

O‘limga bunday munosabat gotik janr, xususan amerikalik shoir Edgar Allan Poni eslatadi. Po ijodida ham o‘lim epitelar orqali obrazlantirilgan bo‘lsa, Kanninghem ham o‘limni gullar, barglar, ildizlar bilan o‘raydi. Amerika romantizmiga xos bu xususiyat postmodernizm adabiyotida ham o‘z izini ko‘rsatgan. Bu o‘rinda atirgullar hayot va o‘lim bir-biriga o‘rindosh ekanligi, Vulf hayotida

yaratgan asarlar o‘limidan keyin ham ayollar qalbida muhrlanishiga ishora sifatida talqin qilish mumkin.

“Before following them, Virginia lingers another moment beside the dead bird in its circle of roses. It could be a kind of hat. It could be missing link of millinery and death” (1, 121).

Virjiniya qushni qoldirib, uy tomon yo‘l olishga shoshilmasdan, jasadga yana bir nazar soladi. Atirgullardan yasalgan gulchambar unga ayollar shlyapasini eslatadi. Mana shu tasvirning o‘zida chuqur falsafiy ma‘noni anglash mumkin. Ayollar shlyapasi, undan atirgullar orasida qo‘nim topgan qush jasadi va o‘lim. Bu uchlikda ramziy ma‘no shundaki, shlyapa kiygan ayollar go‘zallik ramzi, ular jamiyatda bezak vazifasini o‘taydi. Erkaklar ko‘z-ko‘z qilishlari va maqtanishlari uchun vosita va shu vazifalarini amalga oshirib, o‘limga mahkum bo‘ladilar. Virjiniya Vulf — feminizmni targ‘ib qilgan adabiyot vakili. U aksariyat asarlarida ayollar va ularning ijtimoiy mavqeini tasvirlaydi. Shuni nazarda tutgan Kanninghem Vulfga bag‘ishlangan biografik romanida uning g‘oyalarini davom ettirib, XX asr boshlaridagi ayollar maqomini va mavqeini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan.

Kanninghem asaridagi ikkinchi “Mrs. Brown” syujet chizig‘ida ham sariq atirgullar ramziy ma‘no anglatgan. Erining tug‘ilgan kunini nishonlashni rejalashtirgan Lora Braun eriga atirgullar sovg‘a qilishni rejalashtirib qo‘yadi. Biroq uning o‘zi erta sahardan turmush o‘rtog‘idan oq atirgullar shaklida sovg‘a oladi. Gullar vazaga solingan holda tasvirlagan.

“On the table top, a dozen of white roses offer their complex, slightly sinister beauty. Through the clear glass vase Laura can see the bubbles, fine as grains of sand, clipping to their stems” (1, 43).

Stol ustida vazada turgan oq atirgullar murakkab va dahshatga soladigan go‘zallik taratayotgan edi. Shisha vazadan esa atirgullar poyasidagi tuproqdan kichik qabariq havo chiqib turgandek edi. Lora bu atirgullarni ko‘rib jahli chiqadi. Chunki uning o‘zi eriga gul sovg‘a qilmoqchi edi. Oq atirgullar baxt ramzi bo‘lsa-da, Loraning kayfiyati gulning poyasiga qiyoslangan. Bu esa uning oilaviy ahvolidan qoniqmayotganligiga ishora edi.

Tort bilan bog‘liq keyingi epizodda esa, tort ustidagi kremdan yasalgan sariq atirgullarni tasvirini o‘qish mumkin. Lora sariq gullar bilan tortni bezar ekan, ularning chiroyli chiqmaganidan xafa bo‘ladi va tortni axlatga tashlab yuboradi.

“...she returns to the kitchen and, without hesitation, picks up the cake and tips it from its milk-glass platter into the garbage can. It lands with a surprisingly solid sound; a yellow rose is smeared along the can’s curved side. She immediately feels relieved, as if steel cords have been loosened from around her chest. She can start over now. (...) This time, she will trace the letters with a toothpick, so they’ll be centered, and she’ll leave the roses for last” (1, 112).

Misoldan ko‘rinib turibdiki, tort aynan sariq atirgullar shaklidagi krem bilan bezatilgan. Nega aynan atirgul? Va yana nega sariq? Atirgul bu Vulfning “Mrs Dalloway” romaniga pastish, ya‘ni o‘sha detalni qayta yaratish va unga yangi ramziy ma‘no berish

maqsadida tanlangan. Bu bilan Kanninghem har ikki asarni, shu bilan bir qatorda har uch syujetni bog'lay olgan. Avvalroq tahlil qilingan tort simbolikasini to'ldirib kelayotgan atirgullar bu o'rinda salbiy ma'no nozikligini hosil qilgan. Chunki G'arb madaniyatida sariq gullar ayriliq va o'limni ifodalaydi. Lora oilasiga nisbatan tarqoq tuyg'ular, ishonchsizlik va yaqinlashib kelayotgan qochish holatini muallif sariq atirgullar yordamida ifodalagan. Gullardan muvaffaqiyatsiz oilaviy tuyg'ular, hayotdan norozilik, afsuslanish kabi ramziylikni ko'rish mumkin.

"Mrs. Dalloway" deb nomlangan uchinchi syujet chizig'ida ham sariq atirgullar ramziy ma'no kasb etgan. Klarissa rejalashtirgan tadbir uchun sariq atirgullarni sotib oladi.

"Clarissa fills a vase with a dozen of the yellow roses. She takes it into the living room, puts it on the coffee table, steps back, and tries it several inches to the left" (1,123).

Sariq atirgullarni vazaga solgan Klarissa mehmonxonaga olib borib, kichik stol ustiga qo'yadi va orqaga bir qadam tashlab, vazaning turgan holatidan qoniqmaydi, uni bir necha santimetrqa surib qo'yadi. Bu kichik bir ishorada ham tagma'no bor. Klarissa hayotidan mamnun, uning hayoti go'zaldek. Shu sabab u turli tantanali marosimlarni uyushtirib, do'stlari atrofida o'tkazadi. Boroq asardagi qolgan syujet chizig'ida kuzatiladigan baxtli hayotning pafosli tasviri keskin fojiaga aylanadi. Sariq gullar Richardning o'limidan keyin motamga to'la xonani to'ldiradi.

"The flowers, of course, remain — brilliant and innocent, exploding from vases in lavish, random profusion, for Clarissa dislikes arrangements. She prefers flowers to look as if they've just arrived, in armloads, from the fields."

Beside the vase full of roses, Julia sleeps on the sofa with a book open on her lap" (1, 217).

Klarissa gullarni hamma yoqda tartibsiz turishini yoqtirganligi sabab vazalardan gullar xuddi *portlagandek* turar va dabdabali, tasodifiy mo'l-ko'llikda xonani bezar edi. Ular yorqin va begunohdek "brilliant and innocent" edi. Bu tasvirda ham simbolik ma'no bor. Gullar bu asarda qolgan ayollarning ramzi bo'lib, motamdan so'ng Klarissaning uyida yig'ilgan marhum Richardning onasi Lora, Klarissa va uning o'rtog'i Salli, qizi Juliya kabi turli yosh va toifadagi ayollarni ifodalaydi. Ularning hammasi horg'in, tushkun kayfiyatda bo'lishlari bilan birga hayotning davom etishini tushunib, keyingi kunni kutib turishgan edi. Xuddi shu manzarada hayot va o'lim orasidagi masofa, unga tebranishlar va ehtirosiz munosabat dialogda beriladi. Xuddi sahna asari tugaganidek roman sokin yakunlanadi. Vulf ijodiga shaydo Lora, uning qahramoni Klarissaning ikkilamchi obrazi va ular atrofidagi odamlar o'z dunyosida mangu qoladigandek kayfiyat uyg'otadi.

Xulosa. M.Kanninghemning "Soatlar" biografik romani postmodern adabiyotining yorqin namunasi bo'lib, unda taniqli ingliz yozuvchisi Virjiniya Vulf hayoti va ijodi bilan bog'liq voqealar badiiy ifodasini topgan. Asarning syujeti trixotomik bo'lingan yoki triptix shaklida rivojlantirilgan. Har bir syujet chizig'i alohida davr va

obrazlarning badiiy talqiniga bag'ishlangan. Buni XX asrning boshlanishi, o'rtasi va oxiridan olingan manzaralar tasvirida ko'rish mumkin. Shu bilan bir qatorda har bir davrdagi ayol obrazlari tabiati, ruhiy va ma'naviy olamidagi universallik va o'ziga xoslik tasvirlangan. Asardagi ramzlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Kanninghem "qush", "tort", "kreslo", "atirgullar" kabi detallarni ramziylashtirgan. "Jon talvasasidagi qush" obrazi — Virginia Vulfning keskin ruhiy holatini, ayol va erkaklarni o'limga munosabatini, "tort" obrazi — oila va o'tgan asrdagi elliginchi yillarida adashgan ayolni, "kreslo" — detali ijtimoiy muammolar va yuqumli kasalliklarni ramziy ifodalaydi. Romandagi "atirgullar" esa, ikki ma'noda bo'lib, birinchidan — ayol, uning ijtimoiy mavqei, nozikligi, va bolalarning beg'uborligini, ikkinchidan — sariq atirgullar o'lim va motamni ramziy ifodalagan. Demak, asardagi ramzlar kuchli tagma'no hosil qilishda ahamiyatli bo'lib, ular orqali muallif personajlar taqdiri, ayolga xos hissiyotlar jamlanmasi, feministik g'oyalar, ayol dunyoqarashini mahorat bilan tasvirlangan. Shu bilan bir qatorda ramzlar yordamida jamiyatdagi ayrim nuqsonlar (OITS kasalligi) ham ko'rsatib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cunningham M. *The Hours*. — New York, 2002. — 230 p.
2. Khamdamova Sitara Bakhshilloyevna, and Yusupova Hilola Uktamovna. "Symbolism in William Butler Yeats' Poetry". *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, Vol. 2, No. 5, May 2021, pp. 131-5, // doi:10.47494/cajlp.v2i5.140.
3. Khamdamova Sitara Bakhshilloyevna. "Critical Review of Literature on Symbolism in William Butler Yeats' Poetry". *Euro-Asia Conferences*, vol. 3, No. 1, Mar. 2021, pp. 68-69, // <https://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/292>.
4. Khamdamova, S. B. . Mythological Themes and Motives in William Butler Yeats' Poetry // *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, vol. 6, May 2022, pp. 147-50, // <http://sjii.indexedresearch.org/index.php/sjii/article/view/230>.
5. Lamszus, Elizabeth Artistic Anxiety and the Pressure to Perform in Michael Cunningham's *The Hours*. // *Humanities Bulletin*, vol.2, No. 2, Nov. 2019, pp. 194-206 // <https://www.journals.lapub.co.uk/index.php/HB/article/view/1254>;
6. Lackey M. *Biofiction. An Introduction*. — New York and London: Routledge, 2022. — 185 p.
7. Lackey M. *The American Biographical Novel*. — Bloomsbury, 2016. — 278 p.
8. Lackey M. *Truthful Conversations with American Biographical Novelists*. — Bloomsbury, 2014. — 264 p.
9. Oosterik, Liedeke Onbuying flowers and other (not so) ordinary events. An intertextual analysis of "Mrs. Dalloway" and "The Hours" — 2011. — 59 p. // <https://nanopdf.com/privacy>
10. Pillière, Linda. Michael Cunningham's *The Hours*: echoes of Virginia Woolf // *Revue LISA/LISA e-journal [Online]*, Vol. II, No.5, 2004. — P. 132-143. // <http://journals.openedition.org/lisa/2912>; DOI: <https://doi.org/10.4000/lisa.2912>;
11. Struck, Tracy Joy. A Revision of Family and Domesticity in Michael Cunningham's "A Home at the End of the World", "Flesh and Blood", and "The Hours". — University of Montana, 2007. — 97 p.
12. Turaeva B.B. (2021), Theoretical and poetic peculiarities of the chronotope in the novel "The place of the skull" by Ch. Aitmatov.//*PalArch's Journal of Archaeology of Egypt / Egyptology*. 18(5), 84-103. SCOPUS. Retrieved from <https://www.archives.palarch.nl/index.php/jae/article/view/7570>
13. Тўраева Б.Б. «Қиймат» романида микроолам ва макроолам хронотопининг

- параллел тасвири// Ўзбекистонда хорижий тиллар. — 2020. № 4 (44). — Б. 245-265. // <https://doi.org/10.36078/1605719362>
14. Хажиева Ф. Биографик роман жанри хусусиятлари (И.Стоун, М.Қориев ва Н.Норматов ижоди қиссида). Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри дисс. — Тошкент, 2018. — 153 б.
15. Хажиева Ф.М. Постмодернизм ва биографик роман. — Бухоро: Дурдона, 2022. — 120 б.
16. Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик лугати. — Тошкент: Академнашр, 2013. — 245 б.

References

1. Cunningham M. *The Hours*, New York, 2002, 230 p.
2. Khamdamova S. B., Yusupova N. U. (2021), *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 2(5), 131-135, available at: <https://doi.org/10.47494/cajlp.v2i5.140>
3. Khamdamova Sitora Bakhshilloyevna. (2021). Critical Review Of Literature On Symbolism In William Butler Yeats' Poetry.
4. Khamdamova, S. B. (2022). *Journal of Innovation and Integrity*, 6, 147-150, available at: <http://sjii.indexedresearch.org/index.php/sjii/article/view/230>
5. Lamszus, Elizabeth, *Humanities Bulletin*, vol.2, no. 2, Nov. 2019, pp. 194-206 // <https://www.journals.lapub.co.uk/index.php/HB/article/view/1254>;
6. Lackey M. *Biofiction. An Introduction*, New York and London: Routledge, 2022, 185 p.
7. Lackey M. *The American Biographical Novel*. Bloomsbury, 2016, 278 p.
8. Lackey M. *Truthful Conversations with American Biographical Novelists*. – Bloomsbury, 2014, 264 p.
9. Oosterik, Liedeke Onbuying flowers and other (not so) ordinary events. An intertextual analysis of “Mrs. Dalloway” and “The Hours” 2011, 59 p., available at: <https://nanopdf.com/privacy>
10. Pillière, Linda. Michael Cunningham's *The Hours*: echoes of Virginia Woolf *Revue LISA/LISA e-journal* [Online], Vol. II, No.5, 2004, pp. 132-143. <http://journals.openedition.org/lisa/2912>; DOI: <https://doi.org/10.4000/lisa.2912>;
11. Struck, Tracy Joy. A Revision of Family and Domesticity in Michael Cunningham's “A Home at the End of the World”, “Flesh and Blood”, and “The Hours”. University of Montana, 2007, 97 p.
12. Turaeva B. B. (2021), *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt / Egyptology*, 18(5), 84-103. SCOPUS, available at: <https://www.archives.palarch.nl/index.php/jae/article/view/7570>
13. To'raeva B. B. *Foreign Languages in Uzbekistan*, No. 4. (33), pp. 245-265, available at: <https://doi.org/10.36078/1605719362>
14. Xajiyeva F. *Biografik roman janri xususiyatlari* (Peculiarities of the Biographical novel), PhD's thesis, Tashkent, 2018, 153 p.
15. Xajiyeva F.M. *Postmodernizm va biografik roman* (Postmodernism and the Biographical Novel), Bukhara: Durdona, 2022, 120 p.
16. Quronov D. and others. *Adabiyotshunoslik lug'ati* (Dictionary of Literary Terms), Tashkent: Akademnashr, 2013, 245 p.